

**BIOLOGIYA DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA
ASOSIDA TASHKILLASH YUZASIDAN METODIK TAVSIYA**

Sabirova Gulshanoy Raximjonovna

Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 3- sonli o'rta ta'lim maktabi

Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi biologiya darslarini qiziqarli va yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkillaash haqidagi ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: Texnologiya, "Aql charxi", "Baxtli tasoddif", musobaqali, o'yin va ko'rsatmali usullar.


Biologiya Yerdagi hayotning barcha ko'rinishlarini, uning turli darajadagi: molekula, hujayra, organizm, populatsiya (tur), biogeosenoz (ekosistema), biosfera darajasidagi tizimlarning barcha xossalarini o'rganadi. Biologiyaning asosiy maqsadi tirik mavjudotlarning tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari, ko'payishi, rivojlanishi, kelib chiqishi, tabiiy jamoalarda va yashash muhiti bilan o'zaro munosabatlarini o'rganishdir. Biologiya atamasi fransuz olimi J. B. Lamark va nemis olimi G. R. Treviranus tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, «bios» – hayot, «logos» – fan degan ma'noni bildiradi.. Biologiya fanining tarmoqlari. Biologiya fundamental va kompleks fan hisoblanadi. Fundamental fan deyilishiga sabab, biologiya tibbiyot, psixologiya, agronomiya, oziq-ovqat sanoati, farmokologiya uchun nazariy asos bo'lsa, kompleks fan sifatida esa ko'plab tarmoq fanlarni o'z ichiga oladi. Tekshirish obyektiga ko'ra biologiya fani bir qancha sohalarga bo'linadi. Botanika – o'simliklar, zoologiya – hayvonlar, mikrobiologiya – mikroorganizmlar, mikologiya – zamburug'lar, gidrobiologiya – suv muhitidagi organizmlar, paleontologiya – qazilma holdagi organizmlar, ekologiya esa organizm va muhit orasidagi munosabat to'g'risidagi fan hisoblanadi. Biologiya tirik organizmlarning ayrim jihatlarini tekshirish bo'yicha ham turli fanlarga ajraladi.

Har bir fanni bugungi kunda zamon talablariga xos interfaol metodlar orqali o'tish bugungi kunda o'qituvchi-pedagog zimmasidagi ijodkorlik mas'uliyatini shakllantiradi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida aktyorlik va ijodkorlik qobiliyatidan unumli foydalanib, texnika vositalaridan foydalanib, ko'rgazmalarga boy holda tashkillaashi kerak. Bugun biz bu metodik tavsiya orqali biologiya muallimlari uchun metodik ko'mak berishga harakat qilamiz.

Biologiya fanini o'qitish jarayonida tanlangan o'qitish metodlari biologik bilimlar va ko'nikmalarni egallashni ta'minlashi kerak. Biologiyaning ko'pgina mavzulari amaliy xarakterda bo'lib, ularni faoliyat orqali hal qilish talab qilinadi. O'qituvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o'rganishga va maqsadni arzirli

natijalarni qo'lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o'quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda, o'z ustida mustaqil ishlashlari ham zarurligi talab etiladi. Shu sababli, o'z-o'zini boshqarishni va dars davomida o'qitishni o'zida jamlagan o'qitish metodlaridan foydalanish juda muhim. Amaliy metodlarni qo'llashning ijobiy natijalari shundaki, ular o'quvchilarni tanqidiy o'ylashga, rejalashtirishga, savollarga javob topishga, bahslashishga va yechim topishga ruhlantiradi. Tabiatga sayohat va o'quv-yer maydonchasidagi ishlar kabi mashg'ulotlar o'quvchida amaliy va bilim, ko'nikmalarni rivojlantiradi, fanga qiziqishini orttiradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchining tabiat va atrof-muhitni kuzatishiga sharoit yaratadi, shuningdek, sinf xonasida egallagan bilimlarini sinashga, ularni tajribada qo'llashga imkon beradi, o'quvchi bilimi va xulq-atvorida ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi. Muammoli izlanish metodlari dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu metodlar guruhi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini topishi, mo'ljalni to'g'ri olishiga zamin tayyorlaydi. Muammoli izlanish metodlari guruhiga mansub muammoli-izlanish xarakteridagi suhbat metodidan foydalanganda, avval muammoli vaziyatlar yaratiladi, avvaldan tayyorlangan muammoli savollar zanjiri bayon etiladi, o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda mantiqiy mulohaza yuritishiga, o'quv farazlarini hosil qilish va isbotlash, suhbat jarayonida muammoli savollarga javob topishiga imkon yaratiladi.


O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy o'yinli darslardan "Organik olam evolyutsiyasining asosiy yo'nalishlari", "Organik olam evolyutsiyasining dalillari"ni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar guruhlarga teng bo'linib, ularning har biriga shartli ravishda "Botaniklar", "Zoologlar", "Evolyutsionistlar" degan nom beriladi. Har bir "mutaxassislar" guruhi ijodiy izlanib, go'yoki fanda yangiliklar kashf etadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni ko'rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib, o'z javoblarini asoslaydilar. Biologiya fanini o'qitishda "Hayvonlar seleksiyasi" mavzusini ishbilarmonlar o'yini auktsion-dars shaklida o'tkazilishi maqsadga muvofiq.



O'yin mashqlari uchun televidenie orqali muntazam berib borilayotgan va o'quvchi yoshlarning eng qiziq mashg'ulotlariga aylangan o'yinlarni andoza qilib olish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunday o'yinlar jumlasiga "Zakovat", "Zinama-zina", "Kim millioner bo'lishni xohlaydi?" kabilarni kiritish mumkin. Mazkur o'yinlarda o'quvchilar, avvalo, o'z bilimlarini sinab ko'radilar va yana ularning ko'plarida shu o'yinlar ishtirokchisi bo'lish istagi vujudga kelishi tabiiy. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ham yahshi natijalarni berib kelmoqda. Ta'lim jarayonida salmoqli o'rin egallagan muammoli "aqliy hujum" darsi, munozarali (ilmiy munozarali va erkin fikrlash) darslar muammoli ta'lim texnologiyasiga asoslanadi. Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarga asoslanadi. O'quvchilar muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida izlanadi va muammolar yechimini topadi. O'quvchilarni ijodiy va mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish, aqliy faoliyat usullarini egallashga, ularda ilmiy, tanqidiy-tahliliy, mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga olib keladi. Masalan, "Sutemizuvchilarning hayotiy faolligi yuragining hajmiga bog'liq, hasharotlarda ham shundaymi?" degan savolga javob topish uchun o'quvchilar avval sutemizuvchi hayvonlar va hasharotlarning qon aylanish sistemasini taqqoslashi, qonning bajaradigan funksiyalarini eslashi, ular o'rtasidagifarforni belgilashi, nafas olish a'zolarining tuzilishi va funksiyasini chog'ishtirishi, to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa yasab, fikrini dalillashi lozim. Savolning bu tarzda muammoli qo'yilishi o'quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini egallashga imkon beradi. Biologiyani o'qitish jarayonida o'qituvchi yuqorida qayd etilgan tarzdagi muammoli savollarni o'rta tashlashi va o'quvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llashi orqali ularda ijodiy faoliyat tajribalarini

shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim.

“Aql charxi” usulida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi, tez va to‘g‘ri javob berish malakasi shakllanadi. Savollar ketma-ketligini yangi va o‘tgan mavzuni mustahkamlashda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan: Biologiya so‘zi qaysi tildan olingan? Biologiya fanining vujudga kelishi va shakllanishida o‘z hissasini qo‘shgan olimlar nomini ayting va boshqa savollar bilan davom ettirish savol-javobda tezkorlikka alohida e‘tibor berish mumkin.



“Aql charxi” metodini shu yuqoridagi rasm asosida ham o‘tkazish mumkin. Unga ko‘ra rasmdagi narsalar tasviri o‘quvchilar tomonidan to‘g‘ri va tez fursatda topib, yozishlari mumkin.

“So‘z o‘yini” metodi. Bu usulda biologiya faniga oid atamalar aytish musobaqa tarzida shakllantiriladi: yurak - ko‘krak qafasi – ingichka ichak - kekirdak – kalla suyagi – ichki organ – nafar yo‘li ... O‘quvchilar so‘nggi harfga so‘z aytishlari kerak. Aytolmagan o‘quvchi o‘yindan chetlatiladi. Oxirida qolgan o‘quvchi o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantiriladi.

“Baxtli tasodif” usuli orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog‘lik o‘rganilganligini aniqlash oson bo‘ladi. Buning uchun qog‘ozdan kartochkalar tayyorlanadi va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo‘yiladi. Faqat bitta kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga tushsa “Baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o‘quvchilar ham savollarga bergan javoblari asosida baholanadilar. Masalan, biologiya darsida “Baxtli tasodif” o‘yini quyidagicha tashkil etilishi mumkin: “Baxtli tasodif” o‘yini uchun tuzilgan kartochkalar:

Baxtli tasodif – 1.1. To‘pgullarga qaysi o‘simliklar kiradi? 2. Barg qanday qismlardan tashkil topgan? Baxtli tasodif – 2.1. Piyoz inson hayotida qanday ahamiyatga ega? 2. Changchi necha qismdan iborat? Baxtli tasodif – 3.1. Meva qanday hosil bo‘ladi? 2. Urug‘ tarkibida qanday moddalar bor? Baxtli tasodif – 4 Yutuq «5»

baho Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg‘otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlik ko‘rishga intiladi.

“Kim ko‘p biladi” o‘yini. Bu o‘yinni biologiyaning xohlagan mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog‘ozlarni o‘qituvchiga topshiradilar, sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi.

Boshqaruvchi qo‘llarni sanab, har biriga 1 balldan qo‘yadi. Har bir savolga bir o‘quvchidan javob so‘raladi. Agar javob noto‘g‘ri bo‘lsa o‘sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko‘p ball to‘plasa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

“Xayoliy sayohat” o‘yini. Ta‘limning bu o‘yini biologiya, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo‘llanilishi mumkin. O‘simlik yoki hayvonlar tarqalgan biogeografik viloyatlarga xayolan sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o‘zi mustaqil o‘sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo‘lsa, u g‘olib hisoblanadi.

“Raqamli test” metodi. O‘quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli metod bo‘lib, biologiya fanining barcha mavzularini mustahkamlash va takrorlash jarayonlarida qo‘llash mumkin. Mavzu: Mustahkamlash. (ra‘nodoshlar, karamdoshlar, sho‘radoshlar, gulxaridoshlar)

T\r	Predmet nomi	Predmetlar to‘plami	Raqami
1	G`oza	Ra`nodoshlar	
2	olma		
3	turp		
4	lavlagi		
5	Olga sorbariyasi		
6	olcha	Karamdoshlar	
7	rediska		
8	Bo`ritaroq		
9	Jag`-jag`		
10	ismaloq		
11	kanop		
12	qulupnay	Sho`radoshlar	
13	O`sma		
14	Sho`rak		
15	tobulgi		
16	gulxayri	Gulxayridoshlar	
17	keyreuk		
18	Tugmachagul		
19	cherkez		

Biologiya darslarini tashkil etishda yana “Fikrlarning tarmoqlanishi”, ”BBB”, ”FSMU”, ”VENN diagrammasi”, “Charxpalak”, ”Tushunchalar tahlili”, ”Raqmlar so’zlaganda”, ”Baliq skleti”, ”Yelpig’ich”, ”Bumerang”, “Zakovat”, “Ha yoki yo’q”, ”Zinama-zina”, ”Sinkveyn”, ”SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo’lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta. Bu kabi metodlarni har bir o’qituvchi o’zi dars beradigan o’quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o’ziga xos yo’nalishda tashkil etishi, o’zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o’xshash variantlaridan foydalanishlari mumkin. Bir so’z bilan aytganda, bunday o’yinlar mavzularni o’quvchilarga oson va tushunarli berishning yo’llaridan biri hisoblanib, o’qituvchi yangi-yangi ta’limiy o’yinlarni darslarida qo’llashi, hatto o’zi ham shunday o’yinlarni o’ylab topishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, pedagogik texnologiyalar asosida olib borilgan darslar an’anaviy usulda olib borilgan darslarga nisbatan ancha samaraliroq ekan. Zamonaviy uslubda dars o’tish esa bugungi rivojlanib borayotgan O’zbekiston yoshlarining ulkan yutuqlarga erishishiga, sportning barcha sohalarida yurtimiz bayrog’ini yuksaklarga ko’tarilishiga sabab bo’lsa ajab emas. Sharafli kasblarning eng sharaflisi bo’lgan o’qituvchi kasbiga munosib bo’laylik. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Azixzadjayeva N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat» T., 2003.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.- Qarshi. Nasaf. 2000
3. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo’llanma.- Toshkent: 2004.
4. G’ofurov A.T., Tolipova J.O. va boshqalar. Biologiyao’qitish metodikasi.Oliy o’quv yurtlari uchundarslik. Toshkent, 2013
5. Shaxmurova G., Raxmatov U., Xo’janazarov O’., Tog’aeva G. "Biologiya fanini o’qitish metodikasi" moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2017
4. Internet saytlari:
www.ziyo.uz
www.pedagog.uz